


II. SANOAT

Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2023 yil yanvar-sentabr)



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 13 214,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 87,8 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2 408,2 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 18,2 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 152,8 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1 161,9 mlrd. so‘m miqdorida (8,8 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 11 597,6 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 87,8 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 1 364,7 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 10,3 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 80,6 mlrd. so‘m (0,6 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 171,9 mlrd. so‘m (1,3 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘shishiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo‘shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 10,3 foizni tashkil etdi.

Yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘ati



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m		fizik hajm indeksi, %	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2022 y.	2023 y.		2022 y.	2023 y.

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

12 986,3	13 214,8	100,8	100,0	100,0
----------	----------	-------	-------	-------

iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

100,1	171,9	169,1	0,8	1,3
-------	-------	-------	-----	-----

ulardan:

Tog‘-kon sanoatining boshqa sohalari

87,3	126,6	137,1	0,7	1,0
------	-------	-------	-----	-----

Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko‘rsatish

12,8	45,3	3,5 m.	0,1	0,3
------	------	--------	-----	-----

Qayta ishlash sanoati

11 230,0	11 597,6	102,4	86,5	87,8
----------	----------	-------	------	------

undan:

Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish

1 829,5	2 174,1	106,9	14,1	16,5
---------	---------	-------	------	------

To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish

1 709,9	2 407,7	116,1	13,2	18,2
---------	---------	-------	------	------

Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish

131,7	277,5	2,1 m.	1,0	2,1
-------	-------	--------	-----	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

11,3	5,2	44,3	0,1	0,04
------	-----	------	-----	------

davomi


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.</i>		<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.</i>
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	6 986,5	6 072,6	93,0	53,8	46,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	18,3	5,6	30,4	0,1	0,04
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	19,8	4,3	19,5	0,2	0,03
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	411,3	512,7	108,9	3,2	3,9
Metallurgiya sanoati	1,6	1,7	103,2	0,01	0,01
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	44,2	55,7	111,5	0,3	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	-	-	-	-	-
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	0,2	17,7	11,7 m.	0,002	0,13
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	0,8	5,3	6,6 m.	0,01	0,04
Mashina va uskunalari ta'mirlash va o'rnatish	7,9	4,5	40,4	0,1	0,03
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	57,0	53,0	58,9	0,4	0,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1 564,9	1 364,7	85,5	12,0	10,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	91,3	80,6	92,3	0,7	0,6

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 171,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 foizini tashkil etdi.


Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha Tabiiy gaz olish hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 26,8 foizga, gaz kondensati 19,9 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)

2022 yil yanvar-sentabr



2023 yil yanvar-sentabr



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo‘yicha)

	o‘lchov birligi	yanvar-sentabr oylarida		2022 yilga nisbatan, % hisobida
		2022 y.	2023 y.	

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	1 026,4	751,5	73,2
Ohak tosh	ming tn.	173,4	131,1	75,6
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	-	-	-

davomi

	o‘lchov birligi	yanvar- sentabr oylarida		2022 yilga nisbatan %, hisobida
		2022 y.	2023 y.	
Qayta ishlash sanoati				
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirt</i>	2 598,3	2 431,6	93,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	81,4	47,2	58,0
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	17,6	946,2	53,8 m.
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	163,7	81,7	49,9
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	1 827,4	5 625,3	3,1 m.
Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	2 451,7	4 520,1	184,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	27,0	3,7	13,8
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	22,7	22,6	99,6
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	33,9	32,0	94,5
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	1 724,7	1 744,0	101,1
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	<i>ming tn.</i>	152,0	156,3	102,8
Polietilen	<i>ming tn.</i>	226,1	203,4	90,0
Polipropilen	<i>ming tn.</i>	63,5	60,5	95,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash				
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	4 000,8	3 799,2	95,0
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	31,5	28,3	90,1

davomi

	o‘lchov birligi	yanvar- sentabr oylarida		2022 yilga nisbatan, % hisobida
		2022 y.	2023 y.	


Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	mln. so‘m	49 802,8	51 051,9	102,5
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mln. so‘m	6 543,4	6 818,7	104,2

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 597,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,8 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 51,8 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 5,7 foiz va quyi texnologiyali 42,4 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, tozalangan guruch 3,0 boraboriga, tozalangan yog‘lar va uning fraktsiyalari 84,4 foizga, pishirilgan ip 23,5 foizga oshgan bo‘lsa, bug‘doy noni ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 50,1 foizga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 42,0 foizga, polietilen 10,0 foizga, aroq 6,4 foizga va polipropilen 4,7 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 364,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,3 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 2,5 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 4,2 foizga oshganligi kuzatildi.


Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 1 964,5 mlrd. so‘mlik iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1 416,0 mlrd.so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (103,3 foiz), 193,3 mlrd. so‘mlik vino-arop mahsulotlari (98,4 foiz) va 355,2 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2022 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 160,3 foiz) ishlab chiqarildi.


Yanvar-sentabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.</i>
Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish	2 259,8	1 964,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
oziq-ovqat tovarlari	1 469,8	1 609,3	65,0	81,9
nooziq-ovqat tovarlari	790,0	355,2	35,0	18,1

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari



Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida




Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari
(jamiga nisbatan ulishi)

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 47,1 %), Taxiatoş (11,7 %), Qo‘ng‘irot (7,1 %), To‘rtko‘l (4,6 %), Beruniy (4,0 %), Amudaryo (3,9 %) va Ellikqal‘a (3,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, iste‘mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahri (jami iste‘mol tovarlari hajmining 22,6 %), Taxiatoş (11,9 %), Xo‘jayli (11,2 %), Amudaryo (8,5 %), Ellikqal‘a (7,6 %), Beruniy (7,5 %), To‘rtko‘l (7,2 %) va Chimboy (5,2 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi
(respublika bo‘yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)




2023 yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste‘mol tovarlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13 214,8	100,0	1 964,5	100,0
Nukus sh.	6 223,0	47,1	444,1	22,6
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	521,2	3,9	167,5	8,5
Beruniy	534,6	4,0	146,8	7,5
Bo‘zatov	29,1	0,2	12,5	0,6
Qonliko‘l	286,4	2,2	25,1	1,3
Qorao‘zak	393,3	3,0	27,6	1,4
Kegeyli	201,7	1,5	42,0	2,2
Qo‘ng‘irot	935,8	7,1	96,9	4,9
Mo‘ynoq	162,6	1,2	45,7	2,3
Nukus	275,5	2,1	45,0	2,3
Taxiatosh	1 542,1	11,7	233,6	11,9
Taxtako‘pir	220,6	1,7	37,9	1,9
To‘rtko‘l	609,8	4,6	141,8	7,2
Xo‘jayli	345,1	2,6	219,1	11,2
Chimboy	292,9	2,2	102,4	5,2
Shumanay	209,2	1,6	26,9	1,4
Ellikqal‘a	431,9	3,3	149,6	7,6

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va
iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish**

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so‘m</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste‘mol tovarlari</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 656,3	989,5
Nukus sh.	18 516,8	1 321,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	2 483,7	798,2
Beruniy	2 638,8	724,8
Bo‘zatov	1 330,8	570,0
Qonliko‘l	5 369,6	471,0
Qorao‘zak	7 255,9	508,2
Kegeyli	2 710,0	564,9
Qo‘ng‘irot	6 929,9	717,5
Mo‘ynoq	4 851,8	1 364,1
Nukus	5 175,0	844,6
Taxiatosh	20 180,1	3 057,0
Taxtako‘pir	5 673,9	975,3
To‘rtko‘l	2 695,4	626,9
Xo‘jayli	2 702,1	1 715,6
Chimboy	2 541,3	888,8
Shumanay	3 621,4	465,0
Ellikqal‘a	2 557,0	885,5

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari, ming so‘mda



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 485,9 mlrd. so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o‘shishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘shining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	2022 yil yanvar-sentabr	2023 yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	44	16
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	26	15
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so‘m</i>	488,6	485,9
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	10,8	14,7
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	74	122

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 797,7 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo‘shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 51,4 foizni tashkil etdi.